

PAPER

IDENTIFIKATSIYA JARAYONI ILMIY TADQIQOT USLUBI SIFATIDA

Holyigitova Nasiba Xabibullayevna^{1,*} and Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li¹

¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Pedagogika va Psixologiya” kafedrası mudiri, dotsent and ² Toshkent Kimyo xalqaro universiteti (Ijtimoiy psixologiya) yo'nalishi magistranti.

* qahharovn91@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada identifikatsiya jarayoni va uning shaxs rivojlanishidagi o'rni ijtimoiy-psixologik jarayonlari tahlil qilinadi. Identifikatsiya insonning o'zini jamiyat va guruhlar tarkibida anglash jarayoni sifatida talqin qilinib, uning psixologik barqarorlik va ijtimoiy integratsiyaga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda L.S. Vigotskiy, Z. Freyd va E. Erikson kabi olimlarning identifikatsiya nazariyalari o'rganilib, shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada shaxsning butun hayoti davomida identifikatsiya jarayonlari turli ijtimoiy omillar va guruhlar ta'sirida o'zgarib borishi, shuningdek, ushbu jarayonning psixologik va madaniy jihatlari muhokama qilinadi. Identifikatsiyaning shaxsiy va ijtimoiy moslashuvga ta'siri, uning rivojlanish dinamikasi va zamonaviy jamiyatda duch keladigan muammolar tahlil qilinadi.

Key words: identifikatsiya, ijtimoiy-psixologik jarayon, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, madaniy adaptatsiya, taqlid, ijtimoiy rollar, psixologik barqarorlik, moslashuv, shaxsiy identifikatsiya.

Ishning dolzarbligi

Identifikatsiya muammosi bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi, chunki u shaxsning o'zini jamiyatda, guruhlarda va madaniy kontekstda qanday anglashini belgilaydi. Ayniqsa, o'smirlik davrida identifikatsiya jarayoni muhim bo'lib, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya muammolari psixologik barqarorlik, moslashuvchanlik va ijtimoiy integratsiya bilan bevosita bog'liqdir. Identifikatsiya jarayonida inson o'zining kimligini aniqlash orqali o'z qadr-qimmatini shakllantiradi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy rollar va madaniy qadriyatlar insonning o'zini qanday his qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

L.S. Vigotskiy taqlidni (o'zlashtirish, identifikatsiya) ongning barcha xos insoniy xususiyatlari va faoliyat turlarining paydo bo'lish manbai deb hisoblagan. U shunday nazariyani ishlab chiqqanki, u “boshqalar orqali biz o'zimiz bo'lamiz”, “nima uchun barcha oliy psixik funksiyalar avval tashqi shaklda mavjud bo'lishi shart” ekanligini tushuntiradi [2].

Tadqiqotchilar ta'kidlaydilar, taqlid bolalar shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi:

- Identifikatsiya — shaxs shakllanishining mexanizmi;
- Taqlid — insonning subyektivligi va ichki dunyosining shakllanish mexanizmi;

- Global taqlidchanlik — bolaning shaxsiy pozitsiyasini rivojlantirishning zaruriy bosqichi [14].

Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar obrazlarida imitatsiyaga oid motor elementlar mavjud [3]. Vigotskiy ta'kidlaganidek, inson rivojlanar ekan unda dastlab ijtimoiy muhit ta'sirida taqlidchanlik rivojlanadi. Dastlab bola oila azolariga ota-onasiga taqlid qiladi keyinchalik maktabdagi ustoz yoki do'stlariga oxshashga harakat qila boshlaydi. Bola kattargan sari unda o'ziga xos hislatlar shakllana boshlaydi. Ijtimoiy muhit zamirida u o'ziga xos va mos identifikatsiyasini shakllantiradi. Ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlangan identifikatsiya keyinchalik shaxsiy identifikatsiyaning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Identifikatsiya — bu “Men”ni shakllantirish jarayoni va natijasidir [16]. Identifikatsiya tushunchasi “Men”ning shakllanishining markaziy mexanizmi bo'lib, shaxsning psixik rivojlanish darajasini ko'rsatadigan mezon bo'lishi mumkin.

Psixoxanalizda identifikatsiya tushunchasi Z. Freyd identifikatsiya fenomenini psixologiyaga kiritgan va psixoxanalitik nazariya nuqtayi nazaridan uning individ rivojlanishidagi rolini aniqlagan. Freydning psixoxanalitik konsepsiyasiga ko'ra, bolaning shaxs sifatida rivojlanishi uning o'zi bilan bir xil jinsdagi ota-onasi bilan identifikatsiyasi orqali sodir bo'ladi. Bu jarayon natijasida “vahshiy va qo'rqqoq bola” o'z jinsiga

mansub ota-onasiga identifikatsiyalanadi [6]. Shu yo'l bilan bola ijtimoiylashgan va axloqiy tamoyillarga moslashgan shaxsiga aylanadi. Rivojlanayotgan bolada ongsiz instinktlar va ongli ravishda o'zlashtirilgan normalar o'rtasida doimiy ichki ziddiyat yuzaga keladi. Freydda identifikatsiya tushunchasi uning shaxsiy nazariyasining markaziy elementi hisoblanadi. Identifikatsiya dastlab:

- ID darajasida — bola o'z jinsidagi ota-onasiga tug'ma qiziqish orqali,
- Keyin Super-Ego orqali axloqiy normalarni o'zlashtirib,
- So'ng Ego (Men) darajasida shaxs shakllanishi orqali sodir bo'ladi.
- Freyd izdoshlari identifikatsiya nazariyasini chuqurroq tadqiq qilishdi va uning qo'llanilish sohasini kengaytirishdi. Natijada identifikatsiyaning yangi turlari kiritildi:
 - Projektiv identifikatsiya (M.Klyayn) — shaxs o'zidagi yoqimsiz yoki qabul qilinmaydigan his-tuyg'ularni boshqa shaxslarga "o'tkazib qo'yish" orqali o'zini himoya qiladi.
 - Himoya identifikatsiyasi (A.Freyd) — shaxs tajovuzkorlik kabi ijtimoiy maqbul bo'lmagan sifatarni o'zlashtirish orqali "Super-Ego" shakllanishiga ta'sir qiladi. Zamonaviy psixanalizda identifikatsiya quyidagicha tushuniladi: Bu dinamik jarayon bo'lib, faqat bolalik davri bilan cheklanmaydi (E. Erikson). U ham ongsiz, ham ongli darajada amalga oshishi mumkin. Identifikatsiya obyektlari bolalik bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun hayoti davomida turli shaxslar va ijtimoiy guruhlarini o'z ichiga oladi. Identifikatsiya subyektning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lgan moslashuvchan jarayondir [15]. E. Erikson takidlaganidek identifikatsiya bolalik davridan boshlanib butun umri davomida ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanib o'zgarib boradi. Inson rivojlanish jarayonlarida turli ijtimoiy guruhlarining azosi sifatida o'zini idrok qiladi. Masalan bola maktabda o'zini o'quvchi sifatida ko'radi.

Bixeviorizmida identifikatsiya tushunchasi

Bixeviorizm nuqtayi nazaridan shaxs rivojlanishi quyidagi asosiy jarayonlar bilan bog'liq:

- Mustahkamlash — muayyan xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki jazolanishi orqali shakllanishi.

- Generallashuv — o'rganilgan xatti-harakatlarning turli vaziyatlarga kengaytirilishi.
- Taqlid (imitatsiya) — boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga o'xshash xulq-atvor namoyon qilish.

Bixevioristik yondashuvda identifikatsiya ikkilamchi motivatsion ehtiyoj yoki umumlashgan taqlid ko'nikmasini shakllantirish jarayoni sifatida tushuniladi [14]. Identifikatsiya bixeviorizmida quyidagi tushunchalar bilan bog'liq:

- Mustahkamlash va ikkilamchi ehtiyoj shakllanishi: (J. Dollard, N. Miller, J. Gewirtz). Shaxsning identifikatsiyasi mukofot yoki jazolash orqali shakllanadigan ikkilamchi ehtiyoj deb qaraladi. Masalan, bola ota-onasi tomonidan maqtov olgan xatti-harakatlarni takrorlaydi. Mukofot ijobiy bo'lsa unda ijobiy identifikatsiya, salbiy bo'lsa unda salbiy identifikatsiya mustahkamlashish shakllana boshlaydi. Bu kabi ikkilamchi ehtiyoj shakllanishi shaxsda identifikatsiyaning yuzaga chiqishiga olib keladi. - Rol nazariyasi: (J. Kagan, K. Levin, R. Sears, P. Sears, W. Emmerich) Identifikatsiya shaxsning ijtimoiy rollarni o'rganishi va ularni o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Masalan, bola ota-onasining harakatlarini o'rganib, "ota" yoki "ona" rolining namunalarini qabul qiladi. Shaxsni shakllanishida u turli ro'llarga kirishadi masalan rahbar hodim. Bu ro'llarning o'zgarishi shaxsning identifikatsiyasiningham o'zgarishi mumkin.
- Kognitivizm bilan bog'liqligi: (Bandura, R. Walters, M. Helper). Identifikatsiya kognitiv jarayon sifatida qaraladi, bunda shaxs boshqa odamlarning xatti-harakatlarini kuzatadi,

ularni tahlil qiladi va ongli ravishda o'zlashtiradi. Masalan, bola televizorda ko'rgan qahramonlarning xatti-harakatlarini o'rganib, ularga taqlid qiladi. Kognitivizm bunda insonlar voqea va hodisalarni o'rganib taxlil qilib analiz sintezlangan holda unda inetifikatsiya jarayonlari shakllanadi.

- Bixevioristik yondashuvda identifikatsiya shunchaki ongsiz jarayon emas, balki tashqi ta'sirlar natijasida shakllanuvchi o'rganish jarayoni sifatida tushuniladi. Bixevioristik yondashuvga ko'ra, identifikatsiyaning asosiy funksiyasi — tayyor xatti-harakat shakllarini egallash. Bu jarayonda individ boshqalarning xatti-harakatlaridan iborat bo'lgan xususiyatlar majmuasini o'zlashtiradi. Identifikatsiya ikkita asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

• **Xulq-atvor komponenti** — shaxs boshqalar tomonidan namoyon qilingan xatti-harakatlarni kuzatib, ularni mexanik tarzda takrorlaydi.

• **Kognitiv komponent** — shaxs o'z xatti-harakatlarini modellashtiradi va ongli ravishda o'rganadi. Bixevioristik yondashuvda hissiy (emotsional) komponent e'tiborga olinmaydi, ya'ni identifikatsiya asosan ko'r-ko'rona taqlid qilish yoki mustahkamlangan xatti-harakatlarni takrorlash deb tushuniladi. Mazkur holatda shaxsning xatti harakatlari undagi emotsional holati va aqliq darajasiga asoslangan xolda kognitiv hamda bixevioral yondoshuv asosida identifikatsiyalanadi.

D. Linn va A. Xeylbrun [14] tadqiqotlarida shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalar (erkaklar) ko'proq erkaklik stereotipi bilan identifikatsiyalanadi, otasi bilan emas. Yoshlik davrida bu ta'sirning nisbiyligi kuzatiladi va o'smirlik yoshida yondoshlar ham identifikatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsata boshlaydi. Sababi bola tug'ilganida enda erkaklik garmonlar bilan dunyoga keladi. Keyinchalik u ijtimoiy muhit ta'sirida erkaklik xislatlarini o'zida shakllantiradi.

Identifikatsiya — shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi va turli psixologik nazariyalar identifikatsiyaning shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida ko'rib chiqadilar:

Psixanaliz nuqtayi nazaridan, identifikatsiya ongsiz ravishda sodir bo'ladi va shaxs ota-onasi prototiplariga o'xshash tarzda shakllanadi. Bixeviorizm nazariyasida, identifikatsiyaning asosiy funksiyasi — yangi xatti-harakat shakllarini egallash bo'lib, bu shaxs rivojlanishining tarkibiy qismini tashkil etadi. Identifikatsiyaning umumiy ahamiyati shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishining asosiy mexanizmi bo'lib, u turli psixologik nazariyalarda muhim rol o'ynaydi. Har qanday shaxsiy yangilanish identifikatsiya mexanizmini o'z ichiga oladi yoki unga asoslanadi. Shu sababli, identifikatsiya — shaxs rivojlanishining uzviy va markaziy jarayoni hisoblanadi.

Gumanistik konsepsiyalarda identifikatsiya tushunchasi

Gumanistik yondashuvga ko'ra, shaxs va shaxs bo'lishga intilish individning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ijtimoiy muhit esa shaxs mavjudligini ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ekzistensial shaxs o'zini o'zidan yuqori bo'lgan, idealga intilish orqali rivojlantiradi. Inson tayyor shaklda mavjud emas, u doimiy ravishda o'zini yaratib boradi, buni esa faol subyektivligi va "loyiha sifatidagi Men" orqali amalga oshiradi [19]. K. Rodgers bo'yicha "**Men**" konsepsiyasining to'rt parametri [18]:

1. Haqiqiy o'zini o'zi anglash — o'zini haqiqiy qabul qilish, ya'ni shaxsning o'zi haqida mavjud tasavvuri.
2. Ijtimoiy rol haqidagi tasavvur, ya'ni jamiyatdagi o'rni va boshqalar bilan munosabatlari haqida tushunchasi.
3. O'zining jismoniy holati haqida tasavvur, ya'ni tashqi ko'rinishi va jismoniy imkoniyatlarini qanday qabul qilishi.
4. Kelajak maqsadlari, rejalari va istaklari haqidagi tasavvur. Men konsepsiyasining bu to'rt predmeti insonni o'zligini qabul qilish va o'zi xaqidagi optimal qarorlar qabul qilish va o'zini shaxs

sifatida identifikatlashga yordam beradi.

Shaxs rivojlanishining yo'nalishi

K. Rodgers konsepsiyasiga ko'ra, shaxs rivojlanishining asosiy yo'nalishi "real Men"dan "ideal Men"ga harakat qilish. Bu jarayon o'zini takomillashtirish va "to'liq funktsionaluvchi inson" holatiga erishish sari yo'naltirilgan. Bu harakat identifikatsiya mexanizmlariga asoslanadi, ya'ni inson o'zining ideal qiyofasini shakllantirish jarayonida boshqalar bilan identifikatsiyalanadi.

Identifikatsiyaning fenomenologik belgilari

Identifikatsiyaning asosiy fenomenologik belgisi hissiy komponentning mavjudligi, ya'ni o'ziga o'xshashlikni his qilish, identifikatsiya obyektining muayyan xususiyatlarini o'zlashtirish va ichki qabul qilish (interiorizatsiya qilish) hisoblanadi [14].

Identifikatsiyaning asosiy funktsiyalari

Identifikatsiya shaxs rivojlanish mexanizmi sifatida quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- O'zlikni anglashni shakllantirish (samotanish)
- Ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarni shakllantirish
- Norma, stereotip, rol, qadriyat yo'nalishlari, ma'no yo'nalishlari va motivlarni interiorizatsiya qilish hamda ular orqali xulq-atvorni boshqarish.

L.F.Oboxova [11] ta'kidlashicha, taqlidni (imitatsiyani) yo'nalish shakli sifatida tushunish unga faoliyatning turli sohalarida – moddiy va ma'naviy jihatlaridan – navbatma-navbat ustunlik berish imkonini beradi.

V.S. Muxina [9] identifikatsiya (o'zlashtirish) va ajralishni universal mexanizmlar sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu mexanizmlar filogenez (insoniyat taraqqiyoti) va ontogenez (indivud rivojlanishi) jarayonida shakllanadi va shaxs rivojlanishini belgilaydi. V.S. Muxinaning fikriga ko'ra [10], individning butun insoniy mohiyatni o'zlashtirish mexanizmi — identifikatsiya, ya'ni o'zini boshqalar bilan o'xshatishdir.

Muxina bo'yicha identifikatsiyaning turlari

V.S. Muxina identifikatsiyani ikki asosiy shaklda ko'rsatadi: 1. Interiorizatsion identifikatsiya.

Bu shaxsning boshqasini "o'zlashtirishi" va unga hamdardlik bildirishini (obyektga yo'naltirilgan identifikatsiya) ta'minlaydi.

2. Eksteriorizatsion identifikatsiya • Bu o'z his-tuyg'ulari va motivlarini boshqalarga ko'chirish (subyektga yo'naltirilgan identifikatsiya) jarayoni. Faqat shu ikki mexanizm o'zaro ta'sir qilgan taqdirdagina shaxs rivojlanishi, o'zini anglash (refleksiya) va jamiyat kutgan ijtimoiy moslashuvga erishish mumkin bo'ladi.

- Shaxs ontogenezida identifikatsiya bosqichlari

Shaxs rivojlanish jarayonida identifikatsiya quyidagi bosqichlardan o'tadi:

- Ism bilan identifikatsiya – shaxs o'zini ismi orqali anglay boshlaydi.

- Ijtimoiy namunalarga identifikatsiya – inson jamiyatdagi namunaviy shaxslar bilan o'zini o'xshatib, tan olinishi uchun intiladi.

- Jins bilan identifikatsiya – o'z jinsiga mos keladigan xulq-atvor va rollarni qabul qilish. Bu jarayonda o'g'il bolalar dadillik, kuchlilik kabi sifatlarni shakllansa, qiz bolalarda ibolilik, go'zallik kabi xislatlar oila azolari orqali shakllanadi.

- "Men" obrazi bilan identifikatsiya – o'zini o'tgan, hozirgi va kelajakdagi shaxsiy tajribalar orqali anglash.

- Ijtimoiy qadriyatlar bilan identifikatsiya – inson jamiyatdagi qoidalarga moslashadi, huquq va majburiyatlarini anglaydi.

Tadqiqotchilar V.V. Avramenkova, N.V. Alekseeva, A.V. Burova, G.E. Ivanova, Yu.N. Karandashev, T.I. Komissarenko, T.V. Senko va boshqalar [5; 6; 12; 13; 14] tomonidan o'tkazilgan tajribalar V.S. Muxina tomonidan ilgari surilgan shaxs rivojlanish mexanizmlari konsepsiyasini tasdiqlaydi. Bizning tadqiqotimizda [1] "Men" shakllari rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida identifikatsiya ko'rib chiqilgan. Eksperiment natijalariga ko'ra:

- Ilk bolalik davrining oxiriga kelib (taxminan 3 yoshdan keyin) identifikatsion harakatlar va psixik funktsiyalar rivojlanishi natijasida bolaning o'zligini anglash shakllanadi. Sababi bu yoshda bolada menligining shakllanishining sababi xam aqliy ham jismoning barqarorlikka erishayotgan bo'ladi.

Shaxsiy yangilanish tushunchasi [17] shunday ta'riflanadi:

- Bu identifikatsiya mexanizmini o'z ichiga olgan yoki unga asoslangan har qanday psixik hodisa.

- Bunday hodisalar shaxs rivojlanishi jarayonida refleksiya (o'zini anglash) bilan bog'liq bo'ladi. Demak, identifikatsiya nafaqat shaxs rivojlanishining markaziy mexanizmi, balki inson ongining shakllanishi va o'zligini anglash jarayonining ajralmas qismidir.

Xulosa

Shunday qilib, shaxsni o'rganuvchi nazariyalarning mualliflari identifikatsiyani ijtimoiy tajribani o'zlashtirish mexanizmi sifatida ko'radilar.

Shaxs — bu ijtimoiy-madaniy tuzilma bo'lib, u insonning jamiyat bilan bog'liqligini aks ettiradi. Indivud identifikatsiya mexanizmi orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtirib, shaxsga aylanadi. Shaxs rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, har bir psixik rivojlanish bosqichida yangi sifatlarni paydo bo'ladi. Shaxsiy yangilanishlar har doim identifikatsiya mexanizmini o'z ichiga oladi. Identifikatsiya doimiy, lekin o'zgarib boradi — u yosh va psixik rivojlanish bosqichlariga qarab o'zgarib boradi.

Zamonaviy psixologiyada identifikatsiya tushunchasini tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish bizga quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi: Identifikatsiya – shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi va turli psixologik nazariyalar identifikatsiyani shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida ko'rib chiqadilar: Psixozanaliz nuqtayi nazaridan, identifikatsiya ongsiz ravishda sodir bo'ladi va shaxs ota-onasi prototiplariga o'xshash tarzda shakllanadi. Gumanistik konsepsiyalar bo'yicha, identifikatsiya "Men" tuzilishini yaratish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Bixeviorizm nazariyasida, identifikatsiyaning asosiy funktsiyasi – yangi xatti-harakat shakllarini egallash bo'lib, bu shaxs rivojlanishining tarkibiy qismini tashkil etadi. O'zbek (mahalliy) psixologiyada, identifikatsiya orqali inson o'zining insoniy mohiyatini o'zlashtiradi va shaxs sifatida shakllanadi. Identifikatsiyaning umumiy ahamiyati shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishining asosiy mexanizmi bo'lib, u turli psixologik nazariyalarda muhim rol o'ynaydi. Har qanday shaxsiy yangilanish identifikatsiya mexanizmini o'z ichiga oladi yoki unga asoslanadi. Shu sababli, identifikatsiya – shaxs rivojlanishining uzviy va markaziy jarayoni hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Белановская О.В. Диагностика становления "Я" как формы развития замещающих действий в раннем возрасте // Актуальные проблемы деятельности практических психологов (в свете идей Л.С.Выготского): Материалы междунар. науч.-практ. конф., Минск, 14 – 15 дек. 1999 г.: В 2 ч. — Мн.: БГПУ им.М.Танка, 1999. — Ч.1. — С.100 — 104.

2. Выготский Л.С. История развития высших психических функций // Собр. соч.: В 6 т. — М.: Педагогика, 1983. — Т.3. — С. 144.
3. Выготский Л.С. Проблема возраста // Собр. соч.: В 6-ти т. — М.: Педагогика, 1984. — Т.4. — С..
4. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию. — М.: ЧеРо, 1997. — С. 297 — 313.
5. Карандашев Ю.Н. Как дети понимают взрослых? — Мн.: БГУ, 1981. — 208 с.
6. Карандашев Ю.Н. Развитие мышления у дошкольников // Детская психология / Под ред. Я.Л.Коломинского, Е.А.Панько. — Мн.: Университетское, 1988. — С. 221 — 243.
7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политическая литература, 1975. — С. 177.
8. Малейчук Г.И. Модель становления идентификации // Психологія. — 1998. — № 2(11). — С. 3 — 19.
9. Мухина В.С. Возрастная психология. — М.: Издательский центр “Академия”, 1997. — С. 83 — 94.
10. Мухина В.С. Проблемы генезиса личности. — М.: МГПИ им. В.И.Ленина, 1975. — С. 73 — 96.
11. Обухова Л.Ф. Формы и функции подражания в детстве // Л.Ф. Обухова. Детская (возрастная) психология. — М.: Российское педагогическое агентство, 1996. — С. 330 — 340.
12. Сенько Т.В. Психология взаимодействия: Часть вторая: Диагностика и коррекция личностного поведения: Учебное пособие. — Мн.: Карандашев, 1998. — 272 с. — (Библиотека практического психолога).
13. Сенько Т.В. Психология взаимодействия: Часть третья: Личность в семейном социуме: Учебное пособие. — Мн.: Карандашев, 2000. — 288 с. — (Библиотека практического психолога).
14. Попова Л.В. Становление и развитие проблемы идентификации как механизма онтогенеза личности в возрастной психологии: Автореф. канд. психол наук. — М., 1986. — 16 с.
15. Тайсон Р., Тайсон Ф. Психоаналитические теории развития: Пер. с англ. — Екатеринбург: Деловая книга, 1998. — С.83 — 171.
16. Фрейд З. Психоанализ детских неврозов // З.Фрейд. Психология бессознательного. — М.: Просвещение, 1989. — С. 39 — 199.
17. Шашок В.Н. Генезис личностных новообразований в переходный период от младшего школьного возраста к подростковому: Автореф... канд. психол. наук. — Мн., 1999. — 21 с.
18. Rogers C. Client-Centred Therapy. — Boston, 1965. — 560 p.
19. Self and identity: perspectives across the lifespan / Ed. by T. Honess, K. Yardley. — London and New York, 1987. — 375 p.